

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 1089,6 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 101,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 985,6 mlrd. so'mni (102,0%), o'rmon xo'jaligi – 90,7 mlrd. so'mni (101,0 %), baliqchilik xo'jaligi – 13,3 mlrd. so'mni (63,7 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasining ulushi 3,2 % ni tashkil etdi.

**1089,6**

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm

01**985,6**

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar

02**90,7**

O'rmon xo'jaligi


03**13,3**

Baliqchilik xo'jaligi

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (% da)



2022- yilning yanvar-mart yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 90,5 % – dehqonchilik va chovachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 8,3 % – o'rmon xo'jaligi, 1,2 % – baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi



2022- yilning yanvar-mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Amudaryo (171,9 mlrd. so'm) va Beruniy (128,7 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Bo'zatov (28,3 mlrd. so'm), Mo'ynoq tumanlari (13,1 mlrd. so'm) va Nukus shahrini (11,2 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi ko'rsatkichidan (101,2 %) yuqori o'sish sur'atlari Nukus shahri (119,0 %), Taxiatosh (103,6 %), Qonliko'l (103,3 %), Nukus (103,1 %), Ellikqal'a (103,1 %), Qo'ng'iroq (102,6 %), Xo'jayli (102,5 %) va Amudaryo (101,4 %) tumanlarida kuzatildi, Beruniy (99,1 %), Shumanay (98,4 %) va Mo'ynoq (91,1 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.


Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining o'sish sur'ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 974,2 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 101,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 87,6 mlrd. so'mni (99,5 %), chorvachilik mahsulotlari – 886,6 mlrd. so'mni (101,9 %) tashkil qildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (% da)**




**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumi hajmining 86,2 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 11,4 % – fermer xo'jaliklariga, 2,4 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'satmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (% da)



2022-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Mo'ynoq (17,5 %) va Qo'ng'irot (15,5 %) tumanlarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Bo'zatov (96,0 %) tumanida, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Nukus shahrida (24,3 %) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Bo'zatov tumanida (3,5 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Amudaryo tumanida (78,5 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Chimboy va Qorao'zak tumanlarida (0,3 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 87,6 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 99,5 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 9,0 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 626,0 tonna sabzavotlar (2021- yilning yanvar-martiga nisbatan 1,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 56,7 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



**Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha sabzavotlar
yetishtirish hajmi, tonna**




Chorvachilik




2022- yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 886,6 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 101,9 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiylajmiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 91,0 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.




2022- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 15,9 ming t. go'sht (2021- yilning yanvar-martiga nisbatan 2,4 % ga ko'p), 51,8 ming t. sut (1,9 % ga ko'p), 80,3 mln. dona tuxum (0,1 % ga ko'p), 25,0 ming dona qorako'l teri (0,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi va 647,2 tonna baliq (40,9 % ga kam) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● **Fermer xo'jaliklari**

● **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**


● **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 15,9 ming t. go'sht (2021- yilning yanvar-martiga nisbatan 2,4 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




**Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha go'sht (tirik vaznda)
yetishtirish hajmi, tonna**




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 51,8 ming t. sut (2021-yilning yanvar-martiga nisbatan 1,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 90,5 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha ishlab chiqarilgan
sut hajmi, tonna**




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 80,3 mln. dona tuxum (2021- yilning yanvar-martiga nisbatan 0,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahvil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 92,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




**Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha olingan tuxum
hajmi, ming dona**




Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 647,2 tonna (2021- yilning yanvar-martiga nisbatan 40,9 % ga kam) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiylajmidan 54,8 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



**Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha ovlangan baliq
hajmi, tonna**



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2022- yining 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,8 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,1 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 13,0 % fermer xo'jaliklariga, 85,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 2,0 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiylar sonidan 25,2 % fermer xo'jaliklariga, 72,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 2,7 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiylar sonidan 9,8 % fermer xo'jaliklariga, 81,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 9,2 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


2022- yilning 1-aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1160,3 ming taga yetdi. 2021-yilning 1-aprel holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 37,4 ming taga (3,3%) ko'paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1-aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




**Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha *yirik shoxli*
qoramollarning umumiyligi
bosh soni, ming bosh**




2022- yilning 1-aprel holatiga ko'ra, sigirlarning umumiyl bosh soni 334,8 ming taga yetdi. 2021- yilning 1-aprel holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 11,4 ming taga (3,5 %) ko'paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da




Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1-aprel holatiga ko'ra, sigirlarning bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 91,6 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




**Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha *sigirlarning*
umumi bosh soni,
*ming bosh***




2022- yilning 1-aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 1164,2 ming taga yetdi. 2021- yilning 1-aprel holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni – 35,5 ming taga (3,1 %) ko'paydi.

Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1-aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarning 85,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




**Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha qo'y va echkilarning
umumiyl bosh soni,
*ming bosh***




2022- yilning 1-aprel holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni – 26668 taga yetdi. 2021- yilning 1-aprel holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni –912 taga (3,5 %) ko'paydi.

Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1-aprel holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 72,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




**Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha otlarning
umumi bosh soni, bosh**




2022- yilning 1-aprel holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni – 4821,0 ming taga yetdi. 2021- yilning 1-aprel holatiga solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni – 354,3 ming taga (7,9 %) ko'paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da




Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1-aprel holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 81,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



**Qoraqalpog'iston Respublikasi
bo'yicha parrandalarning
umumiyl bosh soni,
ming bosh**



**Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi**

- 61-222-76-07
- 61-224-93-11